

O‘ZBEK TILIDA GAP URG‘USINING TAVSIFI

Olloyorov Sardor Bahrom o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi

ae-mail: olloyorovsardor96@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada urg‘u va uning turlari hamda o‘zbek tilida gap urg‘usining tavsifi haqida so‘z boradi.*

Kalit soz‘lar: *aksentema, supersegment birlik, sintagma, logik urg‘u, emfatik urg‘u.*

Til birliklari ichida fonetik vositalar, xususan urg‘u, nutq ohangini tashkil etuvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Urg‘u — so‘z va gapdagi muhim bo‘g‘in yoki so‘zning boshqalardan ajralib turishini ta‘minlovchi fonetik hodisadir. O‘zbek tilshunosligida so‘z urg‘usi haqida ko‘p tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, gap urg‘usining mohiyati va xususiyatlarini aniqlash masalasi hanuz dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Og‘zaki nutq oqimi bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar ketma-ketligidan iborat. Bunday bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar qatori segment birliklar qatori hisoblanadi. Lekin og‘zaki nutqimiz faqat segment birliklardan tashkil topmaydi. Bulardan tashqari ketma-ket joylashgan va bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar qatori ustiga qo‘yilgan ustsegment birliklarga ham ega bo‘ladi va bu birliklar nutqimiz ta‘sirchanligini ta‘minlaydi. Ustsegment birliklardan biri urg‘u hisoblanadi.

Urg‘u (aksentema) so‘z tarkibidagi bo‘gi‘nlardan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq ovoz bilan aytilishi yoki gaplardagi ayrim bo‘laklarning, nutq oqimidagi ayrim frazalarning maxsus ohang bilan tak‘idlanishidir. Turli fonetik vositalar (masalan, nafas chiqarishning kuchi, ovozni kuchaytirish, bo‘g‘in tarkibidagi unlining cho‘ziq talaffuzi, ton balandligini o‘zgartirish) orqali bo‘g‘in yoki so‘zni ajratish, shu ajratishga xos kuchli talaffuz. Urg‘u muayyan til fonetik-fonologik tizimining supersegment birligi sanaladi. Tilning qaysi sathidagi birliklarga aloqador bo‘lishiga ko‘ra urg‘uning ikki turi mavjud. Bular: so‘z urg‘usi (leksik urgu‘) va gap urg‘usi

(logik urg‘u). Professor Hasanboy Jamolxonov o‘zining “Hozirgi oz‘bek adabiy tili” darsligida urg‘uni uch turga:

- 1) so‘z urg‘usi;
- 2) sintagma urg‘usi;
- 3) ayiruv (ta'kidlov) urg‘usiga ajratadi.

So‘z bo‘g‘inlaridan biriga tushadigan urg‘u so‘z (leksik) urg‘usi deyiladi. Masalan: bola, lola, kitob, ishchilar, talabalar, mulkdor. So‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shilishi bilan urg‘u ham shunga mos holda ko‘chadi. Masalan: g‘alla -g‘allakor, paxta-paxtakor. Ko‘pgina so‘zlarda urg‘u oxirgi bo‘gi‘nda bo‘lgani uchun o‘zbek tilining soz‘ urg‘usi bog‘liq urg‘u sanaladi.

Sintagma urg‘usi – nutq oqimining ma‘no jihatdan muhim bo‘lgan qismini (sintagmani) alohida ta‘kidlash, ajratish uchun qo‘llangan urg‘u. Sintagmani aniqlash mezonlari ikkitadir: a) semantik mezon; b) sintaktik mezon. Bu mezonlar sintagmaning grammatik-semantik jihatdan yaxlit bir butun konstruksiya ekanligidan kelib chiqadi. Sintagma urg‘usi fraza (gap) ichidagi mazmunan yaxlit, grammatik jihatdan bir butun bo‘lgan qismni maxsus ta‘kidlash, uni shu fraza (gap) ichidagi boshqa sintagmalardan ajratish uchun xizmat qiladigan fonetik vositadir.

Ayiruv urg‘usi – gap bo‘laklaridan birini alohida ta‘kidlash uchun yoki so‘zlovchining his-hayajoni, voqelikka munosabatini maxsus ifodalash maqsadida qo‘llanadigan urg‘u.

Gap urg‘usi — bu gap ichidagi alohida so‘z yoki so‘z birikmasining kuchliroq talaffuz qilinishi bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, gapning ma‘no markazini ajratib ko‘rsatadi. Bu urg‘u, odatda, gapda asosiy semantik yukni ko‘taruvchi so‘zga tushadi va shu orqali tinglovchiga gapning asosiy mazmunini anglash imkonini beradi. Gap urg‘usini olgan so‘z, ko‘pincha, kesimning oldida joylashadi. Masalan, Men kecha Toshkentdan keldim. Men Toshkentdan kecha keldim. Gap urg‘usi logik va emfatik urg‘uni o‘z ichiga oladi.

Logik urg‘u (mantiq urg‘usi) - tinglovchining e‘tiborini gap bo‘laklaridan biriga alohida jalb etish, shu bo‘lak orqali ifodalangan ma‘noni maxsus ta‘kidlash uchun qo‘llanadigan urg‘u. Gapning logik urg‘u olgan bo‘lagi odatda boshqa bo‘laklardan kuchliroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: 1) Men universitetda o‘qiyman (boshqa birov emas, men...). 2) Men universitetda o‘qiyman (litseyda emas, universitetda...). 3) Men universitetda o‘qiyman (ishlamayman, o‘qiyman...) kabi. Logik urg‘u ob‘yekti

bo‘lgan bo‘lakning leksik urg‘uli bo‘g‘ini boshqa bo‘g‘inlardan kuchliroq, undagi unli esa ancha cho‘ziq talaffuz etiladi.

Emfatik urg‘u (emotsional urg‘u). Urg‘uning bu turi ham biror gap bo‘lagini alohida ta‘kidlashga asoslanadi, ammo logik urg‘uda bo‘lakning (so‘zning) ma‘no tomoni ta‘kidlansa, emfatik urg‘uda shu ma‘no bilan birga so‘zlovchining hishayajoni, voqelikka bo‘lgan subyektiv munosabatini ifodalash ham maqsad qilinadi. Bu urg‘u gapdagi so‘zning ta‘sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan: "Eh, qanday go‘zal manzara! Tabiat shu daraja go‘zalki, ko‘rib bahridiling ochiladi!" Bu gapda qanday va go‘zal so‘zlariga, aniqrog‘i, shu so‘zlardagi "qan-" va "-zal" bo‘g‘inlariga emfatik urg‘u tushgan: shu bo‘g‘inlardagi unli tovush ancha cho‘ziq va maxsus ton bilan talaffuz etilgan.

Gap urg‘usi o‘zbek tili fonetikasi va sintaksisining kesishgan nuqtasida joylashgan muhim birliklardan biridir. U gap ma‘nosini aniqlashtirish, axborot markazini ajratish, tinglovchining e‘tiborini kerakli joyga qaratish vazifalarini bajaradi. Urg‘uning to‘g‘ri qo‘llanishi nutq samaradorligini oshiradi va muloqot jarayonini samarali qiladi. Shu bois, gap urg‘usining tahlili o‘zbek tili nazariy fonetikasi va amaliy nutq madaniyatida alohida o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanboy Jamolxonov "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" darsligi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2013 137-144-b.

Internet saytlari:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Urg%CA%BBu>
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/urg-u-3>
3. <https://yondaftar.uz/post?id=69>